



ATOQLI VA TURDOSH OTLARDA SEMANTIKA MASALASI

Beginmov Odil To'xtamishovich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti O'zbek tili va adabiyoti
kafedrası mudiri, filologiya fanlari doktori

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10183578>

ARTICLE INFO

Received: 16th November 2023

Accepted: 21th November 2023

Online: 22th November 2023

KEY WORDS

Atoqli ot, turdosh ot, denotat,
signifikat, kannotatsiya,
semantika, tushuncha.

ABSTRACT

Ma'lumki, shu kunga qadar nom va tushuncha o'rtasidagi munosabatlar masalasi o'z yechimini topgani yo'q. Bu holat atoqli va turdosh otlar munosabati masalasini qayta-qayta kun tartibiga chiqaradi. Maqolada atoqli va turdosh otlarning o'zaro munosabati masalasi tadqiq etilib, atoqli otlar semantikasiga tegishli xususiyatlar tahlil etilgan.

KIRISH

Har qanday tilning leksik tizimining bir qismini tashkil etgan atoqli otlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan so'zlarning alohida bir turini ifodalaydi. Biroq, nom va tushuncha o'rtasidagi munosabatlar masalasi haligacha o'z yechimini topgani yo'q. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, atoqli otlar semantikasiga nisbatan ikki xil nuqtayi nazar kuzatiladi. Birinchi nuqtayi nazarga ko'ra, atoqli otlar hech qanday ma'noga ega emas, chunki ular doimiy tushuncha-signifikatlarni ifodalamaydi, shuning uchun ular "ma'nosiz (asemantik) so'zlar", "etiketlar" deb ataladi. Ikkinchi nuqtayi nazarga ko'ra, atoqli otlar tilda ham, nutqda ham ma'noga ega, lekin turdosh otlardan farq qiluvchi ma'no xususiyatini namoyon qiladi. Atoqli otlarning o'ziga xos xususiyatlari nafaqat semantikada, balki til birliklarining grammatik tuzilishi va faoliyatida ham namoyon bo'lib, o'z navbatida hozirgi lingvomadaniy muhitda aktual onimning semantik makonini o'zgartiradi, kengaytiradi va hatto shakllantiradi.

Atoqli ot bilan turdosh ot o'rtasidagi oppozitsiya til tizimining asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Agar turdosh ot uchun birinchi navbatda obyektini ajratish bo'lsa, ikkinchisida - obyektning o'xshashlari bilan tushunchaning majburiy belgilanishi va ixtiyoriy ravishda ma'lum bir obyektini nomlash bilan bog'liq bo'ladi, atoqli ot uchun aniq bir narsaning nomlanishi majburiy va unda tushunchalarning mos kelishi ixtiyoriydir.

TADQIQOTNING METODOLOGIK ASOSLARI VA USULLARI

Tadqiqot metodologiyasi tilshunoslikda kuzatilgan ma'lum bir tarixiy jarayondagi barcha hodisalar tarixiy va ijtimoiy shartlar va hodisalardan ajratmasdan talqin qilishga asoslanadi.

Tadqiqotning ilmiy-nazariy asosini zamonaviy tilshunoslikning onomosologiya sohasida qo'llaniladigan ilmiy fikrlarni tahlil qilish usullari tashkil etadi.

Shuningdek, lingvistik tadqiqotlarda kuzatiladigan umumiylik va xususiylik, mohiyat va hodisa, shakl va mazmun bilan uyg'unlashgan dialektik qonuniyatlarga asoslanadi. Asosiy



tadqiqot usuli sifatida materiallarni tasniflash, tavsiflash, tuzilish va shakllanishiga ko'ra tahlil qilish, til faktlarini solishtirishdan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Atoqli ot tushuncha bilan bevosita bog'liq bo'lmay, umumiy ma'noga ega emas, turdosh ot esa individual ma'noga ega emas. Bu birlik har doim aniq belgilab qo'yilgan muayyan predmet bilan bog'liqlikdan tashqarida mavjud emas, bu atoqli otlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda eng muhim hisoblanadi, chunki denotatsiz nom mavjud bo'lolmaydi. A.A. Reformatskiy ko'rsatkanidek, atoqli ot ifodalamaydi, balki nomlaydi, "atoqli otlar uchun belgilash qobiliyati oxirigacha cheklangan" [10,10]. Ushbu fikr O.S. Axmanovanning atoqli ot belgilovchi funktsiyadan mahrum va "ma'lum narsa, hodisa, mavqe va boshqalarni ko'rsatadigan oddiy belgidir" degan fikri bilan bog'liq [1, 5-18].

Bu fikrga bo'lgan ishonch uzoq vaqt davomida onimlarning asosiy, nominativ funktsiyasini amalga oshirish bilan mantiqiy bog'liq onomastik tadqiqotlarning yo'nalishini belgilab keldi. Atoqli otlar - muayyan tilning ichki qonun-qoidalariga bo'ysunuvchi, lekin mazmunan ham, ifoda jihatidan ham o'ziga xosligi bilan farq qiluvchi til belgisi sifatidagi birlikdir. Yozma nutqda bosh harflar, qo'shtirnoqlar, chiziqchalar atoqli otlarni ajratib ko'rsatishning qo'shimcha vositasi bo'lib xizmat qiladi. A.V. Superanskaya va A.V. Suslovalarning ta'kidlashicha, atoqli va turdosh otlarga bo'linish leksika uchun asosiy xususiyarlardan biri bo'lib, ular maqsadi, vazifalari va funktsiyalari bo'yicha o'zaro farqlanadi. Agar turdosh otlar obyektlarning butun sinfiga tegishli bo'lib, bir turga birlashishi orqali atrofimizdagi dunyoni bilishimizga imkon bersa, atoqli otlar esa "o'zining umumiy nomiga ega" har bir obyektga alohida nom beradi. Turdosh otga ega bo'lgan obyekt noaniq va cheklangan bo'lib, atoqli ot bilan atalgan obyekt har doim aniqlangan va boshqalardan qat'iy ravishda ajratilgan bo'ladi. Hatto takrorlanuvchi, keng tarqalgan atoqli otlar ham har safar alohida qo'llaniladi [13,8-9].

Atoqli ot "semantik jihatdan qisqartirilgan" va tushuncha bilan bog'liq emas: "turdosh otning atoqli otga aylanishi, eng avvalo, tushunchaning yo'qolishi va so'zning taxallusga aylanishi; aksincha, atoqli otning turdosh otga aylanishi so'zni yangi muhim xususiyatlari orqali yangi tushuncha hosil qilishi bilan bog'liqdir" [11, 61-62].

Hatto semantik jihatdan motivlashgan onimlar ham biror narsa yoki shaxsni nomlash uchun xizmat qiluvchi belgilarga aylanadi va nutq mazmuniga mutlaqo tegishli bo'lmaydi.

Har qanday so'z turkumi atoqli otga aylanib, to'liq yoki qisman otga aylanadi, bu esa uning sintaktik imkoniyatlarini o'zgartiradi. Shunday qilib, so'z turkumining o'zgarmas qismlari va hatto butun bir so'z birikmasi ular bilan bir ta'rifga ega bo'ladi, ya'ni ot xususiyatini namoyon etadi.

Atoqli otlar va turdosh otlar o'rtasidagi farq muammosi jahon tilshunosligida ma'lum darajada o'z yechimini topgan. Jumladan, rus tilshunosi V.D. Bondaletov: "Atoqli otlar tilning kommunikativ emas, nominativ birliklariga tegishli bo'lib, dunyoning ko'pgina tillarida aniq otlar (substantivlar) sinfiga kiradi va atoqli otning o'ziga xosligi uning struktur-lisoniy va funksional tomoniga tegishlidir", degan xulosaga keldi [3, 20]. Y.A. Karpenko fikricha, "atoqli otlar faqat nominativ funktsiyani bajaradi: ular semasiologik funktsiyalarni bajarishga qodir emas. Bundan tashqari, ular polisemiya bilan tavsiflanmaydi, turli obyektlar bir xil nomga ega bo'lgan holatlar omonimiyadir. Shunday qilib, turdosh otlarning ko'p ma'noliligi bilan bog'liq



holda atoqli otlarning har qanday semantik o'zgaruvchanligining namoyon bo'lishi, mohiyatiga ko'ra, otning mohiyatini rad etish, atoqli otning turdosh otga o'tishi yoki shunga qaratilgan qadamni anglatadi [4].

Ma'lumki, onomastika sohasida qilingan tadqiqotlarda atoqli otlarni tavsiflovchi boshqa xususiyatlari, jumladan, atoqli otlarning ikkilamchiligi (funksional va genetik), ularning struktur-lingvistik va funksional ixtisoslashuvi, shuningdek, onimlarning qo'llanish qonuniyatlari ham qayd etilgan. A.A.Beletskiyning fikricha, atoqli va turdosh otlar o'rtasidagi asosiy farq ularning strukturaviy va lingvistik jihatida emas, balki funksional jihatdadir. "Atoqli va turdosh otlar o'rtasidagi farq morfologiyada ham, semantikada ham emas, balki ikkala leksik sinfning qo'llanishi, foydalanishi, funksiyasidadir... Ular funksiyalarining munosabatlariga kelsak, atoqli otlarni individuallashtiruvchi, turdosh otlarni esa klassifikatsiyalovchi deb atash mumkin bo'lar edi" [2,167]. Atoqli otlar atoqli ot bo'lmaganlardan "tushunchalar bilan emas, balki voqelikning diskret obyektlarga bog'liqligi" bilan farq qiladi [2,12].

Shubhasiz, atoqli va turdosh otlar turli darajadagi leksik abstraktsiyaga egaligi bilan xarakterlanadi. Atoqli otlar "turdosh otlarda bo'lgani kabi ortida turgan obyektlar bilan bir xil munosabatga ega emas. Ko'pgina holda ular o'rtasida hech qanday bog'liqlik yo'qligi, atoqli otlar hech qanday ma'noga ega emasligi, boshqa barcha so'zlarda bo'lgan "bevosita predmet ma'nosi" mavjud emasligi kuzatiladi. Ular nomlaydilar, lekin anglatmaydilar. Darhaqiqat, turdosh otlarning ma'nosi bizning xohishimizdan qat'i nazar, turli xil narsalar bilan juda chambarchas bog'liq; bu aloqani buzish bizning qo'limizda emas" [16,14].

V.A. Nikonovning ta'kidlashicha, atoqli otlarda mavjud quyidagi xususiyatga e'tiborni qaratish lozim: "Atoqli otlar tilde umumiy til qonuniyatlari maxsus sindirilgan va o'ziga xos qoliplari vujudga kelgan, tildan tashqarida bo'lmagan o'ziga xos quyitizimni tashkil qiladi" [9,6].

Tadqiqotchilarning fikricha, atoqli otlar har qanday til leksik tizimining bir qismi sifatida bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega va so'zlarning alohida turini ifodalaydi. Biroq, nom va tushuncha o'rtasidagi munosabatlar masalasi hal qilinmagan. Bu borada bir nechta nuqtayi nazarlar mavjud.

Birinchi nuqtayi nazarga ko'ra, atoqli otlar hech qanday ma'noga ega emas, chunki ular doimiy ma'noli tushunchalarni ifodalamaydi. A.A.Reformatskiy, Y.A.Karpenko, A.V.Superanskaya va boshqalar nom semantikasini nutqdan tashqarida, mavhum-mantiqiylik pozitsiyadan ko'rib chiqadilar, shuning uchun ular atoqli otlarni "bo'sh (asemantik) so'zlar", "etiketlar" deb atashadi. Boshqa bir nuqtayi nazarga ko'ra, atoqli otlar tilde ham, nutqda ham ma'noga ega, lekin turdosh otlardan farq qiluvchi boshqacha turdagi ma'noga. Bu fikrga E. Kurilovich, V. A. Nikonov, O. I. Fonyakova va boshqa tadqiqotchilar ham qo'shiladi.

Atoqli otlar antisemantik degan fikrga V.D.Bondaletov qo'shilmaydi va u quyidagilarni atoqli ot komponentlari deb hisoblaydi: 1) denotativ (so'z ma'nosining predmetga munosabati); 2) signifikativ (tushunchaga munosabati); 3) struktur (so'z ma'nosining tildagi boshqa so'zlarga munosabati) [3, 26-27].

V.N. Teliyaning so'zlariga ko'ra, nomlanish aktlari pragmatik omillar bilan bevosita hamkorlikda davom etishi mumkin. Ikkinchisi signifikat - nominatorlarning ifodalashga bo'lgan u yoki bu munosabatida o'z izini qoldiradi: emotsional, baholovchi, nomlovchining



nutqning ijtimoiy sharoitlariga yoki tilning mavjudlik shakllariga yo'naltirilishi va uning funktsional va stilistik farqlanishi. Nomlashda nafaqat obyektiv voqelik elementlari aks etadi, balki pragmatik, subyektiv munosabat ham ma'noning maxsus subyektiv-modal komponenti hisobiga til birliklarining ekspressiv xususiyatlarini yaratadi [14].

N.A.Nikonov toponimlar atoqli ot sifatida uch xil ma'noga ega deb hisoblagan: 1) toponimgacha bo'lgan ma'no, ya'ni apellyativning etimologik ma'nosi); 2) toponimning o'z ma'nosi va 3) toponimlikdan keyingi ma'nosi [7,62-63]. N.A.Nikonovning yozishicha, Yelena ismida "odam" "ayol" tushunchasi mujassamlashgan. Bundan tashqari, bu ism "mana u", "shaxs" kabi ma'nolarga ham ishora qiladi[8,55].Ozarbayjon tilshunosi Hasan Aliev ishida ham shunga o'xshash fikrni ko'rish mumkin. Uning yozishicha, atoqli ot xususiy va umumiy ma'noga ega. Masalan, Sevil ismi - inson, ayol, azarbayjon ayoli ma'nolarini, Ivan esa - inson, erkak, rus ma'nolariga ega [18, 7].

Nomlash har qanday otning, shu jumladan, atoqli otning asosiy leksik vazifasidir. "Bu lingvistik funktsiya nutqda atoqli otlarning boshqa barcha funktsiyalarini qoplaydi va doimo ularga hamroh bo'ladi.Tilda bu xususiyat har ikki turdagi otlarni bir-biriga qarama-qarshi qo'ymasdan yaqinlashtiradi [12,272].

Atoqli ot ma'nosini uning qo'llanish sharoiti bilan bog'lab izohlash O.T. Molchanovaning qarashlari uchun ham xosdir. Uning fikricha, atoqli ot ma'nosi muammosini atoqli otning barcha guruhlariga uchun bir xilda tatbiq etib bo'lmaydi. Anellyativ bilan atoqli ma'nosi orasida munosabat murakkab bo'lib, nomning apellyativ ma'nosi atoqli ot semantic strukturasida anchagacha saqlanib turadi [6, 7].

N.I.Tolstoy atoqli otlar ma'nosi masalasini maxsus tadqiq qilib, quyidagi xulosaga keladi: "Atoqli ot qandaydir, birxil noma'lum xabarni (mazmunni) tashiydi, buni atoqli ot ma'nosi semantikasi bilan qarshilantirmaslik kerak" [15, 200].

O.I. Fonyakovaning fikricha, atoqli otning konnotativ ma'nosini turdosh otga qaraganda boyroq, atoqli ot bilan turdosh ot o'rtasidagi farq tushuncha (kontseptual) va predmet (denotativ) mazmun darajasida bo'ladi. Uning ta'kidlashicha, "Apellyativ ma'nosining subyekt-tushuncha yadrosi tashqi dunyoning bir hil hodisalari sinfi bilan bog'liq va ularning eng umumiy belgilarini o'z ichiga oladi". Onimda u bitta hodisa bilan bog'liq bo'lib, "yagona tushuncha" ni aks ettiradi. Konnotativ ma'no nuqtayi nazaridan, atoqli ot turdosh otdan farqli o'laroq, yana ko'p turli semalarni o'z ichiga oladi. "Paradigmatikada (son kategoriyasi, aniqlik, deminutivlar va gipokoristikalarining shakllanishi, tipik so'z yasalishi va boshqalar) va sintagmatikada ma'lum xarakterdagi farqlar mavjud bo'lsa-da, ularning kategorik semantikasi umumiylikicha qoladi" [17,24].

Konnotatsiya modeli R. Bart tomonidan kiritilgan bo'lib, u "Yelmslev nazariyasining turli darajadagi signifikatsiya (ma'no) haqidagi qoidalaridan birini qo'llagan. Birinchisi, denotativ sath: bunda belgi ifodalanuvchi va ifodalovchidan iborat bo'ladi. Konnotatsiya boshlang'ich sathga nisbatan ikkinchi - denotativ sathda qurilgan. Ifodalanmish va ifodalovchi boshlang'ich darajadan boshlab ikkinchi, yuqori darajaning belgisiga aylanadi. Hosil bo'lgan ifodalovchi yangi qo'shimcha ifoda belgisiga ega bo'ladi" [5,200-201]. Ya'ni, konnotatsiyaning mavjudligi denotativ transformatsiyasidan dalolat beradi va demak, taxmin qilishimiz mumkinki, atoqli otning bitta obyekt bilan bog'lanishi, hech bo'lmaganda munosabatning yangi bir turi



sifatida murakkablashadi. Konnotatsiyalarning rivojlanishi o'ziga xos bo'lsa-da, onimning "ma'nosi" haqida gapirishga imkon beradigan o'ziga xos signifikatsiyani shakllantiradi.

Ma'lumki, so'z ma'nosi uch xil munosabatni o'z ichiga oladi: denotativ (so'zning predmetga munosabati), belgililik (tushunchaga munosabati), struktur (mazkur tilning boshqa so'zlariga munosabati). Atoqli ot lug'aviy birlik bo'lib, barcha qayd etilgan munosabat turlarini - denotativ, signifikat va strukturaviy-lingvistik munosabatlarning amalga oshirilishi bilan xarakterlanishi mumkin, ammo ularning sifati atoqli otga nisbatan o'ziga xosdir. Atoqli otlarning o'ziga xosligi voqelikning alohida predmet va hodisalarini nomlashga xizmat qiluvchi bu lisoniy birliklarning nafaqat ma'nosida, balki grammatik tuzilishi va faoliyatida ham namoyon bo'ladi. Hozirgi lingvistik va madaniy muhitda mavjud bo'lgan faoliyat aktual onimning semantik makonini o'zgartiradi, kengaytiradi va hatto shakllantiradi.

XULOSA

Atoqli ot va turdosh ot munosabatlari haqida yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, quyidagilarni umumlashtirish mumkin:

Atoqli ot turdosh ot kabi leksik ma'no ifodalaymaydi. Atoqli otning ma'nosi nom konkret qo'llanganda reallashadi. Turdosh otning ma'nosi muayyan sinf (guruh) narsa (obyekt) haqidagi umumlashma tushuncha bilan bog'liq bo'lsa, atoqli ot ma'nosi yakka, individual (alohida) obyekt bilan bog'liq bo'ladi.

Atoqli ot ma'nosi - ensiklopedik ma'nodir va nomlanayotgan obyekt haqidagi turli xabarni o'zida mujassamlashtiradi va bu xabar ko'pqirralidir. Atoqli ot o'z navbatida, umumiy va individual ma'noga ega bo'ladi. Uning umumiy ma'nosi real qo'llanishdan tashqari, til sathidagi ma'nosidir. Individual ma'no esa atoqli otning real qo'llanishdagi ma'nosi hisoblanadi.

Turdosh otning lug'aviy ma'nosi obyekt bilan u ifodalayotgan denotat haqidagi tushuncha orqali bog'lansa, atoqli otning ma'nosi bevosita denotatning o'zi bilan bogliqdir. Atoqli ot ma'nosining kengayib borishi u vazifa o'tayotgan vaziyatga, nutqiy faoliyatga, nomlangan obyektning xarakteri yuzasidan ma'lum bo'lgan tushuncha va tasavvurga bogliq.

Turdosh otning lug'aviy ma'nosi til sathiga tegishli bo'lsa, atoqli otning ensiklopedik ma'nosi tilning onomastik sathiga mansubdir. Atoqli otlar narsa va obyektlarni farqlash uchun xizmat qiluvchi yorliq (belgi, ramz), deyilgan qarash munozaralidir.

Atoqli ot faqat denotativlashtiradi, ataydi, degan nuqtayi nazar chegaralidir. Atoqli otlardan kundalik turmushda doimo foydalanish kommunikativ ehtiyoj talabidir. Turdosh ot mavhum, atoqli ot esa aniqdir, degan fikr qisman to'g'ri.

Atoqli ot tizimining o'ziga xosligi shuki, u tovush yordamida narsalarni farqlashga xizmat qiladi. Atoqli ot moddiy va nomoddiy holatlarda qo'llanadi. Uning moddiy holatda bo'lishi nomning aniq narsa, obyektning qo'llanishida bo'lgan holatidir. Nomoddiy holati esa, iste'moldan tashqarida bo'lgan holatidir.

Turdosh ot qo'llanishda aniq obyekt nomi bo'lganda o'sha obyektning (turdosh otga nisbatan) ko'proq belgini konnotatsiya qiladi. Atoqli ot real qo'llanishda bo'lganida u ensiklopedik ma'no ifodalaydi, tilda mavhum, zaxira holida turganida bu ma'no so'nadi. Atoqli otning umumiy va real ma'nosi bor. Real ma'no denotatni ajratib atashga xizmat qiladi. Atoqli otning ma'nosi u qo'llanishda bo'lganida aniq bo'ladi.



Atoqli ot qo'llanishda ma'lum bir ma'no tashiydi, ammo bu hammaga birdek ma'lum bo'lmasligi mumkin. Atoqli ot ma'nosida nolisoniy komponentlar ham ifodalanadi. Bular estetik, effektiv, axloqiy motivlar, dunyoqarash va ijtimoiy baholashga tegishli jihatlar, shuningdek, uslubiy-kannotativ ma'no qirralari, nom ijodkorlarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy hayoti va boshqa ma'naviy-ma'rifiy motivlardir.

References:

1. Ахманова О.С. К вопросу о слове в языке и речи // Доклады и сообщения филологического факультета МГУ. М.: Изд-во МГУ, 1948. Вып. 5. С. 5-18.
2. Белецкий А.А. Лексикология и теория языкознания (ономастика). Киев: Наука, 1972. 208 с.
3. Бондалетов В.Д. Русская ономастика: учеб.пособие для студентов пед. ин-тов по спец. № 2101 «Русский язык и литература». М.: Просвещение, 1983. 224 с.
4. Карпенко Ю.А. О семантике собственных имен. URL: http://karpenko.in.ua/wp-content/uploads/2013/02/O_Semantike_70.pdf
5. Кафтанджиев Х. Семиотика абсолюта. М.: РИП-Холдинг, 2006. 354 с.
6. Молчанова О.Т. Структурные типы тюркских топонимов горного Алтая. 256 с.
7. Никонов В. А. Введение в топонимику. Москва, 1965. –С.184.
8. Никонов Н. А. Задачи и методы антропонимики//Личные имена в прошлом, настоящем и будущем. М., 1970. С.55.
9. Никонов В.А. Имя и общество. М.: Наука, 1974. 280 с.
10. Реформатский А.А. Топономастика как лингвистический факт // Топономастика и транскрипция. М., 1964. С. 9-34.
11. Реформатский А.А. Введение в языковедение / под ред. В.А. Виноградова. М.: Аспект Пресс, 1996. 536 с.
12. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. Москва: Наука, 1973. — 366 с.
13. Суперанская А.В., Суслова А.В. Современные русские фамилии. М., 1981. 176 с.
14. Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. М.: Наука, 1986. 143 с.
15. Толстой Н. И. Еще раз о семантике собственного имени // Актуальные проблемы лексикологии. Минск, 1970. С.200.
16. Успенский Л.В. Ты и твое имя. М.: Мир энциклопедий Аванта+: Астрель, 2008. 367 с.
17. Фонякова О.И. Имя собственное в художественном тексте. Л.: Изд-во ЛГУ, 1990. 103 с.
18. Элиев Нэсэн. Умумий антропонимика проблемлари. Баку, 1985. 170 б.